

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

GEMATOLOGIYA, TRANSFUZIOLGIYA VA LABORATORIYA ISHI
KAFEDRASI



**Klinik amaliyotda immunoferment va polimeraz
zanjirli reaksiya fani**

REYTING NIZOMI

Toshkent-2024

Tuzuvchilar:

1. Kurbonova Z.Ch. – Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsenti, DSc.
2. Sayfutdinova Z.A. - Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsenti, PhD.

MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA O'TKAZILADIGAN NAZORAT TURLARI

1. Uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida malaka oshirish kurslari tinglovchilarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat tajablariga muvofiqligini aniqlash uchun quyidagi nazorat turlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

umumiyl malaka oshirish kurslarida - boshlang'ich nazorat (kirish testi); oraliq nazorat; yakuniy attestatsiya.

mavzuli malaka oshirishda — 72 kreditdan ko'p bo'lgan kurslarda boshlang'ich nazorat + yakuniy sinov (zachyot); 72 va undan kam bo'lgan kurslarda sinov (zachyot).

2. Boshlang'ich nazorat (kirish testi) — o'tish boshlanishidan oldin tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniqlash maqsadida o'tishning birinchi kunida malaka oshirish kursi mavzusi doirasida tayyorlangan nazorat savollari, test topshirishlari asosida og'zaki so'rov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi.

3. Oraliq nazorat - sikl davomida o'quv dasturining tegishli (bir necha mavzularni o'z ichiga olgan) moduli tugallangandan keyin tinglovchilarning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli.

Oraliq nazorat test, suxbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish, amaliy ko'nikmalarni baxolash yoki ularning kombinatsiyalangan shakllarida o'tkaziladi, aniq ishlab chiqilgan baxolash mezonlari bo'yicha baxolanadi va natijalari guruh jurnalida qayd etiladi;

Oraliq nazorathlar soni va shakli ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

4. Yakuniy attestatsiya (mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov (zachyot)) kurs yakunida mutaxassislik bo'yicha nazariy bilim va malaka maxorati/amaliy ko'nikmalarni tinglovchilar tomonidan takomillashtirish darajasini baxolash usuli. U tinglovchi tomonidan o'quv reja va dastur asosida tuzilgan modullar bo'yicha egallangan nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy kompetentsiya, klinik fikrlash qobiliyatini rivojlanganlik darajasi, olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash maxoratini aniqlash va o'qitish samaradorligini baxolashni kuzda tutadi.

5. Tinglovchilar tasdiqlangan o'quv reja va dasturlarga muvofiq yakuniy attestatsiyadan ishlari, mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov (zachyot) topshirishlari shart.

6. Tinglovchining xap bir nazorat turi bo'yicha o'zlashtirish darjasini 100 ballik baxolash tizimida baxolanadi. Bunda, nazorat turlari bo'yicha saralash (o'tish) ko'rsatkichi oliy ma'lumotli tibbiy kadrlari uchun 70%, o'rta ma'lumotli tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlari uchun 60% etib belgilanadi.

MALAKA OSHIRISH KURSLARIDA YAKUNIY ATTESTATSIYANI O'TKAZISH SHAKLI VA BAXOLASH MEZONLARI

7. Umumiy malaka oshirish kurslarida yakuniy attestatsiyaga oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchilar kiritiladi va nazoratning ushbu turi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- 1- test sinovi;
- 2- amaliy ko'nikma (malaka maxorati)ni baxolash;
- 3- yakuniy suhbat (imtixon).

Amaliy ko'nikmalar ko'zda tutilmagan yo'nalishlarda yakuniy attestatsiya test sinovi va yakuniy suhbat bosqichlarida, o'rta tibbiyot va farmatsevtika kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarida yakuniy attestatsiya test sinovi va amaliy ko'nikmani baxolash bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin.

8. Test sinovi — malaka oshirish kursi o'quv dasturiga muvofiq kafedrada ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Test sinovi natijalari quyidagicha baxolanadi: plangan tug'ri javoblar xajmi umumiy test topshirishlari ulushining 70% (o'rta ma'lumotli tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlari uchun — 60%)ni va undan ortig'ini tashkil etganda - "o'tdi", 69% (o'rta ma'lumotli tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlari uchun - 59%) va undan kam natijaga erishilganda —

"o'tmadi" deb baxolanadi. Tinglovchilarning tayanch bilimlarini aniqlash va yakuniy test sinovini o'tkazish uchun mazkur malaka oshirish kursi o'quv dasturi doirasida tutilgan bir xil test topshirishlari bankidan foydalilaniladi. Tinglovchiga test topshiriqlari bankidan 50 tadan kam bo'limgan xajmda test savollari beriladi.

9. Yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikma/malaka maxoratini baxolash bosqichiga test sinovidangan tinglovchilar qo'yiladi.

Amaliy ko'nikma/malaka maxoratini takomillashtirish darajasini baxolashda tibbiyot kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari " o'tdi" va "o'tmadi" deb belgilanadi.

10. Yakuniy suxbat bosqichida tinglovchiga xar biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masala beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Nazoratning ushbu turi berilgan umumiyl to'g'ri

javoblar soni 7 ta (70%) va undan ortiq bo'lganda — "o'tdi", 60 ta va undan kam bo'lgan hollarda "o'tmadi" sifatida baxolanadi.

11. Mavzuli malaka oshirish kursi yakuniy sinov (zachyot) bilan yakunlanadi.

Sinov (zachyot) amally ko'nikma/malaka maxoratini egallash/takomillashtirish nazarda tutilmagan mavzuli malaka oshirish kurslarida - suxbat, test va boshqa shakkarda kaziladi.

Amaliy ko'nikma/malaka maxoratini egallash/takomillashtirish nazarda tutilgan mavzuli malaka oshirish kurslarida sinov (zachyot) - suxbat-2amaliy ko'nikmani baxolash, test amaliy ko'nikmani baxolash kabi kombinatsiyalarda o'tkaziladi.

Sinov (zachyot) natijalari bo'yicha 70% (o'rta ma'lumotli tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlari uchun - 60%) va undan ortiq ko'rsatkichlarga ega bo'lgan tinglovchi sinov (zachyot)dan o'tgan xisoblanadi.

Sinov (zachyot)da amaliy ko'nikmalar/malaka maxoratini baxolash mazkur nizomning 12-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

Sinov (zachyot) kombinatsiyalangan, masalan, test+amaliy ko'nikma/malaka maxoratini aniqlash shaklida o'tkazilganda, test bo'yicha 70% va undan ortiq ko'rsatkichlarga erishgan, amaliy ko'nikma/malaka maxorati buyicha "o'tdi" sifatida e'tirof etilgan tinglovchilar sinov (zachyot)dan o'tgan xisoblanadi.

12. Nazorat turlari, yakuniy attestatsiya yoki sinov (zachyot) shakkari, ularni o'tkazish tartibi, baxolash mezonlari yo'nalishlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'llim muassasasi Kengashida muxokama qilinadi, tasdiqlanadi va ishchi o'quv dasturlarida aniq ko'rsatiladi.

13. Tinglovchilarning bilim va ko'nikmalari quyidagi mezonlar asosida baxolanadi.

| O'zlashtirish (%) | Baxo | Tinglovchining bilim darajasi |
|--------------------|------|--|
| 90-100 (87-100) | 5 | tinglovchi o'quv dasturining barcha bulimlari bo'yicha tizimli, chuqur va to'liq bilimga ega; savollarga mantiqiy to'g'ri va izchil javob beradi; javoblarida nazariyani amaliyat bilan chambarchas bog'laydi; amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini to'g'ri qo'llay oladi, fikrini xatosiz, to'liq asoslaydi; amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; amaliy topshiriqlarni bajarishda kasbiy bilimini ifodalaydi, yuqori malaka maxoratini ko'rsatadi; |
| 80—89 (76-88) | 4 | tinglovchi dastur doirasida to'liq bilimlarga ega, javobini to'g'ri va xatosiz bayon etadi, savollarga mantiqiy to'g'ri javob beradi. |
| | | amaliy masalalarni xal etishda olgan bilimlarini to'g'ri qo'llay oladi, o'z fikrini asoslashda yuzaga kelgan xatoliklarni o'z vaqtida to'g'rilaydi; amaliy ko'nikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; amaliy topshiriqlarni bajarishda yetarlikasbiy bilim/maxoratga ega ekanligini ko'rsatadi, yangi xolatlarda to'g'ri (lekin ratsional emas) bilimlarni ifodalaydi; vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, javoblarini asoslaydi. |
| 70-79 (60-75) | 3 | Tinglovchi dastur doirasida bilimga ega, savollarga to'g'ri javob beradi, lekin ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yadi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi; amaliy kunikmalarni algoritm bo'yicha izchil va to'g'ri bajaradi; vaziyatli masalalarni to'g'ri yechadi, biroq asoslashda bir muncha qiynaladi. |
| 70 (60)dan kam | 2 | Tinglovchi dastur doirasidagi materialning asosiy qismini bilmaydi, savollarga javob berishda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; javobini mantiqiy bayon etmaydi; olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olmaydi; amaliy ko'nikmalarni bajarishda xatoliklarga yo'l qo'yadi; vaziyatli masalalarni yechishda ko'plab qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi. |

QAYTA TAYYORLASH KURSLARIDA NAZORAT TURLARI, ULARNI O'TKAZISH TARTIBI VA BAXOLASH MEZONLARI

14. Qayta tayyorlash kurslari tinglovchilarining bilim va ko'nikmalari 100 ballik tizimda quyidagi nazorat turlari bo'yicha amalga oshiriladi:

Boshlang'ich nazorat;

Oraliq nazorat (M1 + Mz + Mz + ...) — 50 ball (50%);

Yakuniy attestatsiya — 50 ball (50%).

| Nº | Nazorat turi | Maksimal ball | Saralash bali |
|----|----------------------|---------------|---------------|
| 1. | Oralik nazorat | 50 | 35,0 |
| 2. | Yakuniy attestatsiya | 50 | 35,0 |
| 3. | jami | 100 | 70,0 |

15. Boshlang'ich nazorat – o'qishning birinchi kuni og'zaki so'rov yoki test sinovlari tarzida amalga oshiriladi.

16. Oraliq nazorat test, suhbat, vaziyatli masala yechish, yozma ish yoki ularning kombinatsiyalangan shakllarida o'tkaziladi va guruh jurnalida qayd etiladi. Oraliq nazoratlar soni va shakli ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi. Oraliq nazoratdan o'tgan tinglovchi nazoratning keyingi bosqichi yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

17. Yakuniy attestatsiya uchun ajratilgan 50 ball quyidagicha taqsimlanadi: 1-test sinovi — 20 ball;

2- amaliy ko'nikma/malaka maxoratini baxolash — o'tdi/ o'tmadi; 3- yakuniy suhbat (vaziyatli masalalarni yechish) — 30 ball.

18. Test sinovi — qayta tayyorlash mutaxassisligi bo'yicha kafedrada ishlab chiqilgan test banki asosida o'tkaziladi. Saralash bali 70% (60%)ni tashkil etadi. Tinglovchiga test topshirishlari bankidan 50 tadan kam bo'lmagan xajmda test savollari beriladi.

Test sinovidan o'tgan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaning amaliy ko'nikma/malaka maxoratini baxolash bosqichiga qo'yiladi.

19. Amaliy ko'nikma/malaka maxoratini egallash darajasini baholashda tibbiyot kadrlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan amaldagi Davlat talabi va malaka talablari doirasida tinglovchi tomonidan amalga oshirilishi lozim ko'nikmalar sinovdan o'tkaziladi. Baxolash natijalari "o'tdi" va "o'tmadi" sifatida belgilanadi. Amaliy ko'nikmalarini bajarish algoritmi bo'yicha biron bir ko'nikmani noto'g'ri bajargan yoki bajarmagan tinglovchi yakuniy attestatsiyaning mazkur bosqichidan "o'tmagan" deb xisoblanadi va keyingi yakuniy suxbat bosqichiga kiritilmaydi.

20. Yakuniy suxbat bosqichida tinglovchiga xar biri 5 ta savoldan iborat 2 ta vaziyatli masala beriladi. Vaziyatli masalalarni yechish natijasi mazkur vaziyatli

masalada belgilangan savollarga berilgan to'g'ri javoblar soni asosida shakllantiriladi. Saralash bali 70% (60%)ni tashkil etadi.

21. Tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini baxolash mazkur nizomning 2-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

22. Qayta tayyorlash kurslarida tinglovchilarning kurs bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$YaB=ON(0,5)+T(0,2)+AK/MM \text{ (o'tdi/o'tmadi)}+YaC(0,3),$$

bu yerda, YaB-yakuniy bato; ON-oraliq nazorat; AK-amaliy ko'nikma; MM-malaka maxorati; YaS-yakuniy suxbat.

23. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida amaliy ko'nikmalar/malaka maxorati va yakuniy suxbat bosqichlari xay'at a'zolari tomonidan baxolash varaqalarini to'ldirish orqali amalga oshiriladi.

24. Yakuniy attestatsiya (sinov (zachyot)) qaydnomasi siki tugagach ikki nusxada to'ldiriladi, mas'ul xodim tomonidan imzolanadi va bir nusxasi bir kun muddat ichida dekanat/o'quv bo'limiga topshiriladi.

YAKUNIY ATTESTATSIYANI O'TKAZISH TARTIBI

25. Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi va muddati amaldagi qonunchilik, mazkur nizom, malaka oshirish va qayta tayyorlash o'quv dasturlari mazmuni va o'quv rejasi asosida belgilanadi.

Yakuniy attestatsiyaga o'quv dasturini to'liq o'zlashtirgan, umumiylar malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida oraliq nazoratdan 70% (60%) va undan ortiq ball olgan tinglovchi qo'yiladi.

26. Yakuniy attestatsiya malaka oshirish/qayta tayyorlash kursi oxirida yakuniy attestatsiya komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

27. Tinglovchilarning yakuniy attestatsiyasini o'tkazuvchi komissiya kafedra yig'ilishi qarori/malaka oshirish bo'yicha o'quv markazi raxbari buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Yakuniy attestatsiya o'tkazuvchi komissiya tarkibiga muassasaning tajribali professor-o'qituvchilari, davolash-profilaktika muassasalarining tegishli soxa bo'yicha tajribali yetakchi mutaxassislari kiritiladi.

28. Yakuniy attestatsiya komissiyasini xay'at raisi boshqaradi va barcha tinglovchilarga qo'yilgan talablarning bir xilda bajarilishini ta'minlaydi.

29. Yakuniy attestatsiya komissiyasi o'z ish faoliyatida mutaxassisning malaka talablari, ta'lif dasturlari mazmuni va ushbu nizomga asoslangan xolda ish olib boradi.

30. Yakuniy attestatsiya komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tinglovchilarning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirganlik darajasini egallab turgan lavozimi va mutaxassisligi bo'yicha davlat talablariga mosligini aniqlash;
- yakuniy attestatsiya natijalari asosida tinglovchiga kreditlar ko'rsatilgan xolda to'liq o'quv reja va dasturni o'zlashtirganligi to'g'risida sertifikat berish qarorini qabul qilish;
- yakuniy attestatsiya natijalarini taxlil qilish va o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

31. Yakuniy attestatsiya komissiyasining qarori uning raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatl tugallagan tinglovchilar ro'yxati, u兹li sabablarga ko'ra tinglovchilar safidan chiqarilganlar ro'yxati, uzsiz sabablarga ko'ra tinglovchilar safidan chiqarilganlar bo'yicha tegishli qarorlar o'z aksini topadi.

32. Yakuniy attestatsiyaga kelmagan tinglovchi (sababining uzrliligi tegishli xujjat bilan tasdiklanmagan xolda) sababsiz qatnashmagan xisoblanadi va attestatsiya natijasi "o'tmadi" sifatida baxolanadi.

Yakuniy attestatsiyada qatnashmaslik sababini u兹li ekanligini tasdiqlovchi xujjat uch kunlik muddatda dekanat/o'quv bo'limiga taqdim etilishi lozim.

33. Yakuniy attestatsiya natijalaridan norozi bo'lgan tinglovchi bir kun ichida ariza bilan natijani qayta ko'rib chiqish xususida murojaat qilish xuquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi tuzilib, xolat tinglovchi ishtirokida o'z vaqtida o'r ganiladi va xar bir javob sharxlanib, yakuniy qaror qabul qilinadi.

34. Yakuniy attestatsiya natijalari va o'quv jarayonini yaxshilash bo'yicha takliflar malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kursi yakunlangandan so'ng muassasa yig'ilishlarida muxokama qilinadi va tegishli choralar ko'riladi.

QOLDIRILGAN MASHG'ULOTLAR VA NAZORAT TURLARINI QAYTA TOPSHIRISH TARTIBI

35. Malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi uchun ajratilgan umumiyo soatning 12%gacha bo'lgan xajmi doirasida mashg'ulotlarda qatnashmagan tinglovchilarga qoldirilgan mashg'ulotlarni qayta topshirishga nazoratning keyingi turigacha bo'lgan muddatda ruxsat beriladi.

Uzrsiz sabablar bilan malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi uchun ajratilgan umumiyoq soatning 12%dan ortik xajmini qoldirgan tinglovchilar ta'lif muassasasi raxbarining buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chetlashtiriladi.

36. Oralits nazoratdan "o'tmadi" deb baxolangan tinglovchiga dekanat/malaka oshirish markazi ruxsati bilan yakuniy attestatsiyagacha bo'lgan muddatda qayta topshirishga imkoniyat beriladi. Oraliq nazoratni belgilangan muddatda qayta topshirmagan tinglovchilar yakuniy attestatsiyaga qo'yilmaydi va ta'lif muassasasi raxbarining buyrug'i bilan tinglovchilar safidan chiqariladi.

37. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'tish yakunlari bo'yicha yakuniy nazoratdan o'tmagan yoki unga kelmagan tinglovchiga ruxsatnomalar asosida qayta topshirish uchun bir marotaba bir oygacha bo'lgan muddatda imkoniyat beriladi. Ushbu imkoniyatdan foydalana olmagan tinglovchi yakuniy attestatsiyadan o'tmagan deb xisoblanadi.

38. Malaka oshirish yoki qayta tayyorlash kursi dasturini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyadan muvafiqiyatlari o'tgan tinglovchilarga xujjat (sertifikat) beriladi.

39. Tinglovchilar safidan chiqarilgan yoki yakuniy attestatsiyani qayta topshirishdan o'tmagan tinglovchilarga ta'lif muassasasi raxbarining buyrug'i bilan o'tishning kalendor muddati ko'rsatilgan ma'lumotnomasi beriladi, shuningdek bu xamda uni malaka oshirishga yuborgan buyurtmachi tashkilotga xabar beriladi.

Ma'lumotnomasi tibbiy xodimini unda ko'rsatilgan vaqtida o'quv jarayonida ishtiroy etganligini tasdiqlaydi, biron mazkur shaxsga vakant o'rinnami egallash uchun asos bo'la olmaydi va keyinchalik malaka toifasi attestatsiyasidan o'tish uchun zarur kreditlarni toplashda xisobga olinmaydi.

YAKUNIY QOIDALAR

40. O'zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligi xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Davlat ta'lif sifatini nazorat qilish inspektsiyasi tinglovchilarni attestatsiya natijalarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

41. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo'yicha kelib chiqqan nizolar qonun xujjatlari asosida hal qilinadi.